



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA GUL VA BEHI DARAXTI OBRAZLARI

Mohichehra Rustamova

mohichehrarustamova7771@gmail.com

Annotatsiya. Matnazar Abdulhakim she’rlarida gul obrazidagi turli xislatlar (zeb, ziynat, haqiqat, xasrat, faryod, motam) asli inson qoldiradigan yaxshi va yomon amallarga ishoradir. Matnazar Abdulhakim behi obrazi orqali kechinmalarini erkin ifodalashga erisha olgan deyishimiz mumkin. Bu obraz shoir xayolotidagi voqealarni badiiy chizgilar yordamida chizishda mos kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Behi shunchaki oddiy obraz emas, balki, yorini kuta-kuta sarg‘aygan, uning tun-u kuniga, oy-u quyoshiga aylangan lirik qahramon holatini ochib bera olgan obrazdir.

Annotation. In the poems of Matnazar Abdulhakim, various attributes in the image of the flower (zeb, ornament, truth, Hasrat, cry, mourning) are allusions to the good and evil deeds that a person leaves behind. We can say that Matnazar was able to achieve a free expression of his experiences through the image of Abdulhakim behi. This image is of particular importance in the fact that it is suitable for drawing events from the poet's imagination with the help of artistic drawings. Quince is not just a simple image, but an image in which yorini is yellowed in wait, whose night is the day of him, the moon is the one in which he was able to reveal the state of the lyrical hero, who turned into the sun.

Аннотация. В стихах матназара Абдулхакима различные черты в образе цветка (Зеб, украшение, истина, скорбь, крик, траур) изначально являются отсылкой к добрым и злым поступкам, оставленным человеком. Можно сказать, что матназар Абдулхаким смог свободно выражать свои переживания через образ айвы. Особое значение этот образ приобретает тем, что он уместен при прорисовке событий воображения поэта с помощью художественных линий. Айва-это не просто обычный образ, это образ, способный раскрыть состояние лирического героя, который желает в ожидании Яри, его ночь-он день, Луна-Он солнце.

Kalit so‘zlar: ramziy ifodalar, qochirimlar, tazod va parodokslar, agava daraxti obrazi behi obrazi, daraxt obrazi

Keywords: symbolic expressions, deficits, contrasts and paradoxes, the image of the agave tree quince, the image of the tree

Ключевые слова: символические выражения, избегания, противоречия и парадоксы, образ дерева агавы, образ айвы, образ дерева

Matnazar Abdulhakim she’riyati an'anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar, tazod va eng muhimi, betakror, serohang, serma’no ifodalar bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Fikrning ixcham, lo‘nda shaklda ifodalaniishi, zamonamiz va zamondoshlarimiz ruhiy olamining yangi jihatlarini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ko‘rsatib berish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida yaratgan obrazlari yangi poetik sarhadlarni kashf etganligidan dalolatdir.

Shoir she’riyatining bir xususiyati – ijod namunalarida fikr va ohang jimjimadorligi, inja tuyg‘ ularning obrazli tasvirlarga boyligidir. Ijodkor qo‘llagan ayrim individual istioralarda hissiy tafakkur va falsafiy mushohada tufayli reallashadigan tushunchalarni ko‘chma ma’nodagi obrazlarda yig‘ish, muayyan tizimga solish hamda baholash mumkin.

Shoirning “Agava daraxti” she’rida bu holat har jihatdan mukammal va ohorlidir. Unda umrida faqat bir bora gullab, so‘ngra qurib qoladigan agava guli obrazi xususida bahs-mushohada yuritiladi. Agava (Agave) — chuchmomadoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simpliklar turkumiga mansub bo‘lib, vatani — O‘rta va Janubiy Amerika hisoblanadi. Uning 300 dan ortiq turi Meksika va unga yondosh o‘lkalarda yovvoyi holda o‘sadi. Yevropa va Osiyoda (xususan, O‘rta Osiyo, Qrim va Kavkazda) ham ekiladi. Poyasi qisqa, quyi qismida uzun va qalin (sukkulenta) yopirma barglar joylashgan. Agava monokarp o‘simplik, ya’ni butun hayoti davomida faqat bir marta (6 — 15 yilda, oranjereyalarda esa 20 — 30 yildan keyin) gullab, uzun (12 m gacha) generativ poya chiqaradi, unda 17 mingga qadar gul bo‘ladi. Gullari urug‘lab bo‘lgandan so‘ng agava quriydi. Agava asosan manzarali o‘simplik sifatida ekiladi¹⁴. Tasavvur uyg‘onishi uchun rasmlar orqali ifodalashni ma’qul ko‘rdik.



Aslida, gul shodlik, nafosat, muhabbat ramzi sifatida inson dilini yayratishi, qalbiga xushnudlik baxsh etishi bilan e’zozlidir. Uning qisqa umri ezgulik bilan hayotiy mazmun kasb etadi, keyin qurib qolishi esa jismoniy yo‘qotish bo‘lsa ham yashagan paytdagi

¹⁴ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Agava_\(o%CA%BBsimlik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Agava_(o%CA%BBsimlik))





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tarovati boqiy ma’naviy go‘zallikka aylanadi. She’rda bu xususiyatlar talqini shu qadar teran, bir-biridan uzoq ko‘chma ma’nolar uyg‘unligi asosida beriladiki, natijada yakuniy fikrda bu ko‘chim gulning g‘oyat qisqa, lekin mazmunli umri mohiyatini olib beradi. Bunda agava daraxti majoziy ma’noda fidoyi inson, uning guli ezgulikka daxldor umrdir. Hayot falsafasining badiiy in’ikosi bo‘lgan bu she’rda umr lahzalarini guldagи turfaligi o‘n ikki to‘rtlikning har birining ohirgi ikki misrasida ijodkor izohida ko‘chma ma’nodagi sinonim (zeb-ziyat, orzu-umid, qayg‘u-hasrat) va antonim so‘zlarda (visol, hijron, shodlik, g‘am) o‘z ifodasini topadi. “Qismat hukmi – hayot va o‘lim chambarchasligini qiyg‘os gullar ijrosida” ko‘rgan shoir oxirgi ikki misrasida gul metaforik obrazining tub mohiyati haqida shunday xulosaga keladi:

Agavaning guli – bu bir baxt

Bu mangu bir hayotbaxsh o‘lim¹⁵

Darhaqiqat, gulning barvaqt so‘lishi inson qismatidagi “hayotbaxsh o‘lim” ramzidir. She’rdagi qamrovli poetik ma’no, sodda va ravon uslub, teran nigoh va falsafiy idrok hosilasidir. Uzoq umri davomida bir marta gullab, gullari urug‘langach qurib qoladigan bu daraxt timsolida katta hayotiy haqiqatni ifodalash – mahorat. Shoir bularga erishgan. She’r timsoliy tafakkur namunasi bo‘lib, agava – inson, uning guli esa inson faoliyatining samarasi ramzidir. O‘n ikki to‘rtlikning har birida “agavaning guli” birikmasining takrori asosiy tushunchani bo‘rttirishga qaratilgan va uning sifati inson umri takomilidagi musbat va manfiy qutblarning badiiyashgan ifodasidir. Bu fikr, ayniqsa, she’rning yakunlovchi bandida yorqin aks etgan:

Bu – Qays guli, bu – Majnun guli,

Gar uzatsam qovrilgay qo‘lim.

Agavaning guli bu – bir baxt,

Bu – mangu bir hayotbaxsh o‘lim.

Matnazar Abdulhakim ijodida faylasufona donishmandlik namoyon bo‘ladi. Shoir she’rlarida badiiy mahorat va uslubiy o‘ziga xoslik, falsafiy mulohaza, fikriy teranlik va yuksak badiiyat jilvasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mavzular rang - barangligi ushbu she’riyatga yanada ko‘tarinkilik baxsh etadi. Shoir, nafaqat, yozadi, balki hayotiy haqiqatlarni o‘z she’riy misralari orqali kashf etadi. Bu ijodkorning salohiyati va yetuk mahoratidan, donishmandligidan dalolat beradi.

Bugungi o‘zbek she’riyatining an’anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma’no ifodalar bilan kitobxonni o‘ziga jalb qilib kelmoqa. Fikrning ixcham, lo‘nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insонning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlar o‘zbek she’riyati yangi poetik sarhadlarni kashf

¹⁵ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent. “Sharq”, 2008. – B. 43.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YALAR



etaryotganligidan dalolatdir. Xususan, iste'dodli shoir Matnazar Abdulhakim yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an'anaviy shakkarga mos kelmaydi.

Shoir qalb kechinmalarini o'zgacha ifodalashga harakat qiladi. Bunga misol qilib shoirning "Behi" nomli she'rini keltirishimiz mumkin.

Bir juft behi keltirgan eding,
Bir-biridan xushbo'y muattar.
Men ularni qattiq sog'indim
Va sarg'aydim behidan battar.¹⁶

Lirik qahramonga yori bir juft xushbo'y behini keltiradi. Bu behilar nafaqat xushbo'y balki uni lirik qahramonga qadrli bo'lgan inson keltirgani uchun ham azizligi ta'kidlanmoqda. "Behi" obrazining keltirilishi shunchaki poetik talab emas, balki shoir ruhiyati ifodasi sifatida qo'llanadi. Yorini kuta-kuta sog'ingan lirik qaharamon xuddi behi kabi sariq tusga kiradi. Bu yerda g'am-alamdan sarg'ayish ma'nosi ham bor. Chunki yori kelmaganligi bois lirik qahramon uni o'ylab tashvishlanmoqda, hatto u keltirgan o'sha meva-behining ta'mini tuymoqda.

Mana, yana behilar pishdi
Firoq fasli, hijron mavsumi.
Mevalarning eng bir xazini,
Mevalarning eng bir ma'sumi.

Behi qaysi faslda pishadi? Bu savolning javobi hammamizga kundek ravshanki, behilar kuz faslida pishadi. Shoir lirik qahramonni shu holatda tasvirlaganki, lirik qahramonning yorini boshqa fasllar davomida ham kutgan, ammo u kelmagan. Kuz faslini shoir "firoq fasli", "hijron mavsumi" deb nomlaydi. Haqiqatdan ham kuz faslida hamma narsa sariq tusga kirib, xuddi umri yakunlanib borayotgan yoki bo'lmasam, g'am-alamdan iztirob chekib azoblangan insonlar umriga qiyoslanadi. Nafaqat inson, balki butun nabodat olami shu faslgacha bo'lgan vaqtini sarhisob qilayotgandek tuyuladi. Behi – juda shifobaxsh mevaligi bilan boshqalaridan ajralib turadi, behi daraxti yonida o'zi kabi urug'doshlari bo'lmasa meva tugmaydi. Ya'ni behilar do'stlik, mehr-oqibatlilik ramzi sifatida keltirilishga arziydigan meva hisoblanadi.

Kezmakdaman behizorlarni,
Bir behi yo'q boshin eggan.
Za'faron bu mevalar sag'ir,
Hech biriga qo'ling tegmagan.

Lirik qahramon behizorlarni kezar ekan, boshini egib turgan behi daraxtini topolmaydi. Chunki daraxtlar mevalari ko'p va serhosil bo'lsagina boshini egib turadi. Yorining qo'li tegmaganligi bois bor mevalari ham "sag'ir" ya'ni yetim bo'lib qolgan.

Sensiz butun dunyo bejizim,

¹⁶ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: "Sharq", 2008. – B.7.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Sensiz butun dunyo behudam.
Hamuqubat, hamdardim bilib,
Hol so‘rayman har bir behidan.

Lirik qahramonning yori kelmaganligi bois butun dunyo unga bekor, kambag‘al, hech qanday ma’nosi qolmagan, foydasiz bo‘lib qolganlini ta’kidlamoqda. Behilarning kichikina va mayda bo‘lib qolganligini yori kelmaganligi sababli deb hisoblab, ularni o‘ziga hamuqubat, hamdard deb biladi. Dardimiz bir bo‘lganligi bois ular bilan suhbatlashib, ularning har biridan hol so‘rayman, - deydi lirik qahramon.

Xayolimda boshqa mevalar
Ming bor inkor, ming bor rad bo‘ldi.
Dunyoda bor hikmat yakuni
Juft behidan iborat bo‘ldi.

Dunyoning hikmatini faqat mana shu mevadan topgan lirik qahramonimizga boshqa barcha mevalar begonaga aylandi. Yori keltirgan o‘sha juft behi uning butun olami bo‘ldi.

Kelmasang-da tonglar otmog‘i
Va kunlarning botmog‘I mumkin.
Lekin menga tinchlik bermaydi
Keltirganing juft behi tun-kun.

Yori kelmasa ham kunlar o‘taveradi, lekin o‘sha bir juft behi unga halovat topishiga to‘sinqinlik qiladi, unga tinchlik bermaydi. Har safar mana shu meva esiga tushganda yorini eslab azoblanadi. Kelishiga umidvor bo‘lib yashaydi.

Aylandi ul bir quyoshim,
Aylandi u bir oyimga.
Armon bilan boshqa behilar
To‘kiladi bir-bir poyimga.¹⁷

O‘sha yori keltirgan bir juft behi uning oy-u quyoshiga aylangan, undan bo‘k hech bir meva unga taskin-tasalli berolmaydi. Atrofdagi barcha mevalar qahramonimizning ko‘nglidan joy ololmay, buni juda istasalar ham uddasidan chiqolmasdan, armon bilan uning poyiga to‘kiladilar. Ammo o‘sha bir juft behini keltirgan yorining kelishiga intizor bo‘lib kutishda davom etadi.

Matnazar Abdulhakim bu she’rida ifodalangan ruhiy kechinmalarini, qalb tug‘yonlarini, yoridan chekkan jabr-sitamlarini behi obrazi orqali ifodalaydi. Shoiring mahoratlari ekanligini biz mana shu orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Chunki aynan mana shu obrazni tanlash va uni badiiy bo‘yoq bilan adabiyotga, she’riyatga kirish ijodkorning juda sinchikov ekanligidan dalolat beradi. Behi obrazi orqali shoir azoblangan inson hayotini ochib beradi. She’r tarkibidagi har bir misrada yurak kechinmalari aks etadi. Yoriga sodiqlik, vafodorlik

¹⁷ Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B.7.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- kelmasang kunlar ma’nosiz, mazmumsiz o’tishi, boshqa mevalar yori kabi bo‘lolmasligi, uning kabi emasligi aytilganidan ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bahor fasli yangilanish, yasharish fasli, issiq kunlarning boshlanishi sifatida hayotimizda alohida e’tirofga ega. Uni intizorlik bilan kutish har bir tirik jon uchun odatiy holdir. Shoир sabr qilib bu faslni kutishni aytadi, uni shu taxlit kutib turaversam, boshimdan novda oyog‘imdan ildiz o’sadi deydi. Bu yerda o‘xshatishdan juda mohirona foydalangan shoир sabrning yana bir ko‘rinishini tasvirlayapti. Aytadiki:

Daraxtlar bahorni kutar shu holda,
Mening esa daraxt bo‘lgim yo‘q bugun.
Axir yelkamdagи emas-ku xalta
Qanotdan iborat bor-u yo‘q yukim.

Shoир men bir joyda qotib turgim yo‘q, men daraxt emasman deydi. Inson zoti yaratilibdiki harakatda yashaydi. Harakatlanishdan to‘xtamaslik kerak, yelkada ortib yurgani oddiy yuk emas, balki ota-ona orzusi, ularning umrlik murod-u maqsadlaridir. Quruq orzular, umidlar jonimga tegdi deya davom qiladi shoир:

Qattiq sevganimni sezdirib qo‘ydim,
G‘ururlanib kelmay ketdi yonimga.
Faqat orzulardan men esa to‘ydim,
Faqat umid esa tegdi yonimga.

Obrazni jonli yaratish va u orqali insonlarga ta’sir qilish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Matnazar Abdulhakim bu ishni ham uddalagan ijodkordir. Inson va vogelikni badiiy kashf etish ijodkor fikrlashi – mavzu tanlashdan boshlanadi. Mavjud hayot tarzi, ijodkor yashayotgan davr xususiyatlari mavzularda muayyan darajada aks etadi. Ammo ularga munosabat har bir ijodkorda har xildir. Bu hol mushtarak mavzularga bag‘ishlangan asarlarga ham daxldor bo‘lib, shoirlarning ijodiy individualligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilganda, she’rlarida gul obrazidagi turli xislatlar (zeb, ziynat, haqiqat, xasrat, faryod, motam) asli inson qoldiradigan yaxshi va yomon amallarga ishoradir. Matnazar Abdulhakim behi obrazi orqali kechinmalarini erkin ifodalashga erisha olgan deyishimiz mumkin. Bu obraz shoир xayolotidagi voqealarni badiiy chizgilar yordamida chizishda mos kelganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Behi shunchaki oddiy obraz emas, balki, yorini kuta-kuta sarg‘aygan, uning tun-u kuniga, oy-u quyoshiga aylangan lirik qahramon holatini ochib bera olgan obrazdir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matnazar Abdulhakim “Javzo tashrifi” “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent 2008
2. Matnazar Abdulhakim “Fasllar qo‘srig‘i” Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 1986.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – Toshkent: “Fan”, 2007.
4. O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2013.
5. Matnazar Abdulhakim. Oydinlik. – Toshkent. “Yozuvchi”, 1997.
6. H.G‘ayipova. Matnazar Abdulhakimning badiiy va publitsistik mahorati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Urganch: 2019.
7. Жуманиязова Н. Истиклол даври ўзбек лирикасида услубий изланишлар. Фил. фан. номз.дисс. автореферати. – Тошкент: 2011.
8. Mamajonova M. Amrita Pritamning lirik obraz yaratish mahorati. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent: 2015.

